

MUQADDASDIR VATAN BAYROG‘I

Shukurova Dilora Sunnatovna

Buxoro viloyat Kogon tuman

18-maktabning Ijodiy-madaniy masalalar bo‘yicha targ‘ibotchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yoshlar ongiga Davlat bayrog‘i va uning ramzi bugungi O‘zbekiston sarhadida qadimda mavjud bo‘lgan davlatlar bilan tarixan bog‘liqligini hamda respublikaning milliy-madaniy an‘analarini o‘zida mujassamlashtirishi haqida fikr va mulohazalar singdirilgan. Jumladan, millatimiz erki hisoblanmish bayroq tom ma’noda mamlakat ramzi, ulug‘vorlik timsoliga aylanganligi e’tirof etilgan.

Kalit so‘zlar: ezgulik, hurlik, mustaqillik, qadriyat, millatlararo totuvlik, urf-odat, tinchlik.

Barchamizga ma’lumki, bayrog‘imiz o‘zida butun O‘zbekiston xalqining asriy orzu-istaklari, g‘ayrati va shijoatini, xalqimizga xos mehmondo‘stlikni mujassam etgan. Milliy bayrog‘imizning davlat idora va muassasalari, o‘quv yurtlari, O‘zbekiston a’zo bo‘lgan xalqaro tashkilotlar, chet ellardagi elchixona va doimiy vakolatxonalarimiz peshtoqida hilpirab turishi, turli bayram va tantanalarda, mamlakatimiz vakillari qatnashayotgan xalqaro miqyosdagi siyosiy, madaniy-ma’rifiy tadbirlarda, nufuzli sport musobaqalarida Vatanimizning sha’ni, xalqimizning g‘ururini yorqin aks ettirishi barchamizga iftixor baxsh etadi. Masalan, xalqaro sport bellashuvlarida g‘alaba qozongan sportchilarimiz sharafiga yurtimiz bayrog‘i baland ko‘tarilgan lahzada har birimiz cheksiz hayajonga tushamiz, hech kimdan kam emasligimizni his qilamiz.³¹

³¹ Mirziyoyev, Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: Ozbekiston, . 2017

Ranglar jilosida baxt va osoyishtalik ulashib hilpirayotgan milliy bayrog‘imizga ko‘zimiz tushganda, uni faxr bilan ko‘kka ko‘targanimizda butun vujudimiz hayajonga, faxru iftixorga to‘ladi. Istiqlolimiz, baxt-iqbolimiz ramzi bo‘lgan milliy bayrog‘imizni sevib qadrlamagan kishi topilmasa kerak.

Yuksalish va rivojlanish sari dadil hilpirayotgan, xoh osmono‘par binolar peshtoqida bo‘lsin, xoh ish stoli ustida viqor to‘kib turgan Davlat bayrog‘i o‘zida milliy-madaniy an‘analarni mujassam etgani shundoqqina aks etadi. Biz mana shu ozod va obod yurt farzandlari ekanmiz, davlatimiz ramzlarini ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylashimiz, qadriyatlarimizni munosib ravishda o‘rganishimiz va ulardan faxrlanishimiz zarur.³²

Bayrog‘imiz, g‘urur va faxrimiz timsolidir. Vatanimizning beqiyos ramzidir. Quyosh ko‘kda falakning bayrog‘i bo‘lib porlab turibdi, ko‘ngilda muhabbat bayrog‘i hilpiraydi, ongimizni esa tafakkur bayrog‘i nurlantiradi. Davlat ramzlari har bir xalqning mustaqilligi, ozodligi, tinchligi va barqarorligi timsoli hisoblanadi. Yer yuzida ikki yuzdan ortiq davlat bor va albatta, har bir davlatning o‘z ramzlari, bayrog‘i bor.³³ Har bir bayroq ayri-rang va timsollarga ega. Ular bilan yonma-yon balqib turgan bayrog‘imiz hech kimdan kam emasligimiz va kam bo‘lmasligimizni ko‘rsatib turadi. Shuni aytishimiz lozimki, bayroq qadim-qadimdan har bir xalq uchun mustaqillik, hurlik, tinchlik va barqarorlik timsoli bo‘lib kelgan. Ajdodlarimiz ham yurt bayrog‘ini muqaddas bilib, uni ko‘z qorachig‘idek asraganlar. Davlatchiligimiz tarixining qaysi davrini olib qaramaylik, bayroq ajdodlarimiz uchun ozodlik, kuch-qudrat, jasorat, g‘alaba timsoli bo‘lgan.

³² M.Sharifxo‘jayev. O‘zbekiston: yangi g‘oyalar, yangi yutuqlar. - T.: «Sharq» nashriyoti, 2004, 259-bet.

³³ Milliy istiqlol g‘oyasi va ma‘naviyat asoslari. Mualliflar: O. Musurmonova, R. Qo‘chiqorova, M. Qarshiboyev. T.: "Ma'naviyat", 2007.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev, Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: Ozbekiston, . 2017
2. I. A. Karimov "Yuksak-ma'naviyat yengilmas kuch" T. : "Ma'naviyat", 2008.
3. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar (qisqa izohli tajribaviy lug‘at). O ‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. T.: «Yangi asr avlodi», 2002.
4. M.Sharifxo‘jayev. O ‘zbekiston: yangi g‘oyalar, yangi yutuqlar. - T.: «Sharq» nashriyoti, 2004, 259-bet.
5. Barkamol avlod orzusi. - T.: «Sharq», 1998, 144-bOdilov F. Axloqiy ong va ijtimoiy taraqqiyot. «Guliston», 1997,
6. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" T. : Davlat ilmiy nashriyoti, 2003.
7. Milliy istiqlol g‘oyasi va ma'naviyat asoslari. Mualliflar: O. Musurmonova, R. Qo‘chiqorova, M. Qarshiboyev. T. : "Ma'naviyat", 2007.